



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



VOL. 1, ISSUE 1
The Journal of Academic
Research and Trends in
Educational Sciences

ISSN 2181-2675 www.ijournal.uz

TECHNOLOGIES OF EDUCATING STUDENTS WITH DEVIANT BEHAVIOR IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Usmonov Abdurashid Norbutayevich¹

National Center for Training Teachers in New Methods of Samarkand Region

KEYWORDS

deviant behavior, raising children, parental responsibility, social inequality, unhealthy social environment, insincerity, unkindness, cruelty, drugs

ABSTRACT

The article deals with education of students with deviant behavior, social education in the family, prevention of students' deviant behavior, protection of students from drugs, prevention of diseases such as AIDS, and explaining the negative consequences of these diseases.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7468323

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Teacher of the National Center for Training Teachers in New Methods of Samarkand Region, UZB

TA'LIM JARAYONIDA DEVIANT XULQLI O'QUVCHILARNI TARBIYALASH TEXNOLOGIYALARI

KALIT SO'ZLAR:

Deviant xulq atvor, bolalarni tarbiyalash, ota-onalar ma'suliyati, ijtimoiy tengsizlik, ijtimoiy nosog'lom muhit, nosamimiylik, mehirsizlik, shavqatsizlik, giyohvand moddalar

ANNOTATSIYA

Maqolada deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalash, oilada ijtimoiy tarbiya, o'quvchilar deviant xulq-atvorini oldini olish, o'quvchilarni giyohvand moddalardan asrab avaylash, OITS kabi kasallikdan saqlanish va ushbu yuvuz illatlarni salbiy oqibatlarini tushintirish haqida keltirilgan.

Respublikamizda inson salomatligini mustahkamlash va asrash, tarbiyalashni targ'ib qiladigan chora-tadbirlarning maqsadga muvofiqligini ta'minlaydigan qator istiqbolli Farmon va Qarorlar ana shunday xayrli ishga qaratilgan bo'lib, bugungi kunda omilkorlik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

2017 yil 7 fevraldagagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar stretegiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli farmoyishining "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish» nomli 4.5-bandida belgilangan vazifalarning asosiy maqsadi jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash, bolalar va yoshlar o'rtaida tarbiyalashni shakllantirish, avvalo, o'quvchi yoshlar(o'quvchilar) orasida jinoyatchilikning, giyohvand moddalar iste'mol qilishning oldini olish, hozirgi davrda aholining, ayniqsa, yoshlarning zararlanishi kundan-kunga ortib borayotgan dunyo tibbiyotidagi eng muhim muammolardan biri bo'lmish OITS kasalligining oldini olish va unga qarshi kurashishga, tibbiy madaniyatni oshirish, o'quvchi(yigit va qiz)larni sog'lom hayot tarziga tayyorlash, sog'lom avlod tug'ilishi va uni tarbiyalashning chora-tadbirlariga qaratilgan.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda umumta'lim maktablarida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatining tashkiliy-boshqaruvning samarali shakllari va texnologiyalarini qo'llash, salomatlikni tiklashga oid tadbiralarini o'tkazish orqali o'quvchilarning o'zi va o'zgalarning salomatligiga daxldorligini anglatish, turli xil salbiy omillardan himoyalanish, o'z salomatligini asrash uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishi barobarida tarbiyalash ko'nikmalarini egallanishiga zamin tayyorlanadi.

O'quvchilarning tarbiyalash ko'nikmalarini o'zlashtirishga tayyorgarlik darajasi, ularning motivasiyasini aniqlash va tarbiyalashga oid tushunchasini aniqlash uchun anketalashtirish metodi qo'llanildi. O'tkaziladigan anketa so'rovlar tarbiyalash yuzasidan munozara qilish imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. O'quvchilar o'quv motivasiyasining tahlili

Nº	O'quv motivlari	%
1	Tarbiyalash tushunchalarini bilishiga bo'lgan qiziqishni mavjudligi	35
2	Dars davomida tarbiyalash yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajarishda yuqori baholarni olishga intilishi	45
3	O'zini va o'zgalar sog'liklarini qadrlay olishi, milliy an'analar va umuminsoniy qadriyatlar negizida tarbiyalashni tashkil etishiga erishish	30
4	Hayot faoliyati davomida tarbiyalash omillariga rioya etishni shaxsiy e'tiqodga aylantirish	45
5	Tarbiyalashni shakllantirishda ma'naviy va axloqiy fazilatlarning ahamiyatini o'rgatish	35
6	Notarbiyalashni yuzaga keltiruvchi omillardan ongli ravishda himoyalanish	35
7	Jismonan va ruhan salomatligini saqlashga qaratilgan tadbir va kechalarda faol ishtirok etish	40
8	O'z kuchiga ishonchining mavjudligi	55

Ularning bilish faoliyatini sifat tahlili, tarbiyalash yuzasidan kerak bo'lgan bilimlarni egallashga motivasiysi yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi. Bu holatni yosh avlodni barkamol shaxs etib tarbiyalash imkoniyatiga bo'lgan yuqori talablari bilan izohlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni.//O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.- T., 2017y.,39-b.
2. Safarov O. Oila ma'naviyati. - T.: Ma'naviyat, 1998.
3. Taylakov T.N., Asadov Yu.M. Voyaga yetmaganlar orasida deviant xulqka moyil o'quvchilarni aniqlash mexanizmlari. «Kamalak» nashriyoti. - Toshkent-2017.
4. Taylakov N.I. va boshqalar. Voyaga yetmaganlar orasida deviant xulqga moyil o'quvchilarni aniqlash va ularni tarbiyalash. «Kamalak» nashriyoti. Toshkent. 2017. 320 bet
5. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. - T.: O'zbekiston, 2000.
6. Sharipova D., Toirova M., Muhamedova S. Agar bolam sog'lom bo'lsin desangiz. - T.: «Ilm ziyo»-2006y.
7. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz (Ota-onalar uchun tavsiya). - T.: «Ma'naviyat», 2013.